



UO'K: 632.7+633.77+632.9

TAMAKI SO'RUVCHI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KURASHDA AGROTEXNIK TADBIRLARNING AHAMIYATI

Tolibayev Oybek Mirzaboyevich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Samarqand mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

e-mail: tolliboev1986@gmail.com

Bababekov Qalandar 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ergashev Shavkat Murodovich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti

Samarqand mintaqaviy filiali direktori, q/x.f.f.d. (PhD)

e-mail: shavkat.ergashev.2023@mail.ru

Umurzakov Elmurod Umurzakovich 

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori, q.x.f.d.

Annotatsiya. Maqolada tamaki tripsi va shaftoli biti miqdoriga haydash, mineral o'g'itlar, jadval va ekish muddatlari, tozalash va ko'chirishning ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Tamaki tripsi, shaftoli o'simligi, shudgorlash, o'g'itlar, jadval va atamalar, sug'orish, tozalash, ko'chirish.

Abstract. To the article data are driven influence of ploughing, mineral fertilizers, chart and landing terms, cleaning up and tipping on the amount of tobacco thrips and peachy plant louse.

Keywords. Tobacco thrips, peachy plant louse, ploughing, fertilizers, chart and terms, watering, cleaning up, tipping.

Аннотация. В статье представлена информация о влиянии вспашки, минеральных удобрений, графиков и сроков посадки, сорняков и пересадки рассады на численность табачного трипса и персиковой тли.

Ключевые слова: табачный трипс, персик, вспашка, удобрения, графики и сроки посадки, полив, сорняки, посадка рассады.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

So'rovchi zararkunandalar respublikamiz tamaki ekin maydonlarida juda ham keng tarqalgan bo'lib, ekinni o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hasharotlardir [1,2,3,4]. Ushbu zararkunandalar tamakidan tashqari, g'o'za, bodring, qovoqdosh ekinlar, kartoshka, piyoz va boshqa ekinlarni ham kuchli zararlaydi. O'zbekiston tamakichilik hududlarida so'rovchi zararkunandalarga, xususan tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind) va shaftoli bitiga (*Myzodes persicae* Sulz) agrotexnik jarayonlarni ta'siri va ular miqdorini boshqarishdagi ahamiyati etarlicha o'rganilmagan [5,6,7].

Tamaking tamaki tripsi bilan zararlanish darajasi 3 yillik bedadan bo'shagan tamaki ekilgan maydonlarda 12%, bug'doydan bo'shagan tamaki ekinida esa 17,8% ni tashkil qildi. Shaftoli biti bilan zararlanish darajasi ham bedadan va bug'doydan bo'shagan maydonlarga tamaki ekilganda mos ravishda 14,0 va 13,7 % qayd qilindi. Tajriba variantlarida eng ko'p miqdordagi tamaki tripsi va shaftoli biti bilan zararlangan barglar surunkasiga 3 yil tamaki ekilgan maydonda kuzatildi. Bunda umumiy barglarning o'rtacha zararlanishi tamaki tripsi bilan 79,7% , shaftoli biti esa 57,8% ni tashkil qildi. Tamaking tamaki tripsi va shaftoli biti bilan zararlanish darajasini hisobga olinadigan bo'lsa, tamaki uchun eng qulay o'tmishdosh ekin beda va bug'doy hisoblanadi [7].

Ko'chat dalaga 10-15 aprel kunlari o'tqazilgan ko'chatlarning har biriga 1,2 donadan trips to'g'ri kelgan bo'lsa, 20-25 aprelda dalaga o'tqazilganida ko'chatlarning har birida ushbu ko'rsatkich 1,8; 30 aprel-5 mayda o'tqazilganida esa 2,5; 10-15 may -2,8; 20-25 mayda o'tqazilgan ko'chatlarning har birida esa 2,9 dona tamaki tripsi to'g'ri keldi. Tamaki ko'chatini dalaga qancha kech o'tqazilsa, barglarning trips bilan zararlanish darajasi ham shunchalik yuqoriligi kuzatildi [5]. Tamaki ko'chatini dalaga o'tqazish sxemasi. Ko'chatlar 30X7 sm sxemada joylashtirilishi nazorat variantiga (50X7 sm) nisbatan o'simlikni tamaki tripsi bilan zararlangan barg sonini 2,6 martaga, shaftoli biti bilan zararlangan barg sonini esa 3,8 martagacha ko'payishiga olib keldi, bunda zararlanish darajasi mos ravishda tamaki tripsi bilan 62,7%, shaftoli biti bilan esa 49,4% ni tashkil qildi. Tamaki ko'chatlari tup sonining oshishi so'rovchi zararkunandalar rivojlanishi va o'simliklarni zararlashi uchun qulay sharoit yaratadi. Tamakini sug'orish. Tajribalarda tamakini o'suv davrida sug'orish soni 1 martadan 3 martagacha ko'paytirilganda barglarning trips bilan zararlanishi keskin kamayganligi va shaftoli biti bilan zararlanish esa oshganligi aniqlandi [3, 4].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Dala tajribalari mobaynida Samarqand viloyati Urgut tumanidagi tamakichilikka ixtisoslashgan Mirzo Ulug'bek nomli, O. Uzoqov nomli, Q. Rahimov nomli, Navoiy nomli, «Dehqonobod» va «Taroqli» agrofimalari hamda UzBAT qo'shma korxonasi ilmiy-tadqiqot markazi dalalarida, laboratoriya tahlillari





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

esa Samarqand qishloq xo'jaligi instituti markazlashgan laboratoriyasida o'tkazildi (2004) .

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tamaki ko'chatlari dalaga o'tqazilganidan keyin 55 kun o'tgach, tamaki tripsi bilan yuqori zararlanish umuman sug'orilmagan variantda bir tupdagi zararlangan barglar soni 17,9 dona kuzatildi. Eng past zararlanish esa tamaki 3 marta sug'orilganda qayd qilindi (6,3 dona barglar 1 tup tamakida). Tamakining shaftoli biti bilan zararlanish darajasining eng yuqori ko'rsatkichi (o'rtacha 12,8 dona barg zararlangan va zararlanish darajasi 41,9%) ekin 3 marta sug'orilganda e'tirof etildi. Aksincha, ekinni sug'orish soni kamayganda uning shaftoli biti bilan zararlanish darajasi shuncha kamaydi. Tuproqqa ishlov berish. Tuproqni ag'darib 22 sm chuqurlikda haydashda tamaki tripsi va shaftoli bilan zararlangan barglar soni mos ravishda o'rtacha 14,8 dona va 2,8 dona yoki umumiy barglarning 55,8% va 10,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 30 sm chuqurlikda shudgor qilinganda esa bu ko'rsatkich o'rtacha mos ravishda 8,2 va 1,9 dona, yoki zararlanish darajasi mos ravishda 27,5% va 6,4% ga teng bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki, erni chuqur haydash ma'lum darajada ekinni so'ruvchi zararkunandalar bilan zararlanish darajasini kamaytiradi. Tuproqni yuzaki 10-15 sm haydash esa so'ruvchi zararkunandalar bilan zararlanishni birmuncha kuchaytiradi. Tuproq chuqurligi 15 sm qilib haydalganda trips bilan zararlangan barglar miqdori nazorat variantga nisbatan 10,7 % ga oshdi, bunda tamaki hosildorligi 19 % ga va xom ashyo sifati esa 33,6 % ga kamayib ketganligi aniqlandi. Mineral o'g'itlash. Azot va fosfor miqdorini gektariga 10 kg dan 50 kg gacha oshirilishi shaftoli biti bilan zararlanish darajasini 14,5% dan 43,8% gacha oshirganligi tajriba natijalarida qayd etildi. Shaftoli bitini rivojlanishi va mineral o'g'itlarning me'yori o'rtasida proporsional bog'lanish mavjudligi aniqlandi. Tamakining Izmir navini o'g'itlash me'yorini sof holda gektariga N30 P30 K15 berilishi trips bilan zararlanish darajasini ma'lum miqdorda kamaytirdi. Tamaki barglarini uzish texnologiyasining o'simlikni trips bilan zararlanish darajasiga ta'siri.

Tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldiki, trips bilan zararlangan maydonlardagi tamaki barglarini erta muddatlarda, ya'ni barglarni texnik pishgan va texnik pishmasdan uzib olish poyada qolgan barglarni trips bilan zararlanishini nazorat variantiga taqqoslaganimizda 40,0% va 71,2% ga kamaytirganligi qayd qilindi. Barglarning 1 va 2 uzuvlari birgalikda uzib olinganda bu ko'rsatkich 90,4% ni tashkil qildi . Tamaki tripsiga qarshi ushbu mexanik usulni qo'llash oddiy bo'lib, ortiqcha xarajat talab qilmaydi. Shu bilan birga, zararkunandaga qarshi samarali usul bo'lib hisoblanadi. Tamaki to'pgulini uzish (chilpish). O'simlik to'pgulini uzish barglarni shaftoli biti bilan zararlanish darajasi ko'rsatkichiga ta'sir ko'rsatdi.

To'pgul uzilmagan variantda shaftoli biti bilan zararlanish darajasi o'rtacha 57,3% bo'lsa, faqat to'pgul uzilganda o'rtacha 28,4%, to'pgul bilan birga unga birikkan 3-4 dona barg uzib oliganda esa bu ko'rsatkich 8,5% ni tashkil qildi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Bundan ko'rinib turibdiki, tamaki to'pgulini chilpish shaftoli bitiga qarshi samarali mexanik usullardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

So'rovchi zararkunandalarga qarshi quyidagi agrotexnik kurash usullarini qo'llash tavsiya etiladi: tamakini almashlab ekishda bug'doy va bedadan keyin joylashtirish; kuzda tuproqni 30 sm ag'darib shudgorlash; ko'chatni dalaga erta muddatlarda o'tqazish; dalaga ko'chat o'tqazish qalinligini (gektariga 250-300 ming dona) oshirmaslik; tamakini nav agrotexnikasiga rioya qilgan holda sug'orish; mineral o'g'itlarni me'yorida berish (Izmir navi uchun N10P10R5); tamakini birinchi va ikkinchi uzuv barglarini birlashtirib, erta muddatda uzib olish; tamaki to'pgulini 3-4 dona tepa barglari bilan chilpish.

ADABIYOTLAR

1. Киселева С. П. Интегрированная система мер борьбы с болезнями и вредителями табака. //Сб. научных трудов ВНИИТМ, Краснодар, 1988, вып. 175, С. 44-49.
2. Лысенко А. Е. Современное состояние табачной отрасли и усиление её научного обеспечения в Российской Федерации и странах СНГ: //Матер. Международ. науч.- прак. конф. GNU VNIITTI (Всероссийский НИИ табака и табачных изделий). - Краснодар, 2000. -с. 133-135.
3. Новожилов К. В. Некоторые направления экологизации защиты растений. //Защита и карантин растений. 2003. №8, С. 14-17.
4. Хо'jaev Sh. T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. //Toshkent., 2010. 355 b.
5. Kimsanboev H. H., Sagdullaev A. U., Xalilov Q. va boshq. G'alla, paxta, sabzavot, poliz, bog' ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash usullari. //Toshkent. «Fan», 2007, 127 b.
6. Филипчук О.Д., Соколов М.С. Экологизированная защита табака. // Защита и карантин растений. 1999, № 4, с. 17-18.
7. Ахмедов С.И., Умурзаков Э.У. Влияние сосущих вредителей на урожай и качество табака в Узбекистане. //Актуальные проблемы современной науки, Москва, 2018, № 3(97), с.169-173.